

## ORTIQCHA TANA VAZNIGA EGA BEMORLARDA SURUNKALI PANKREATIT KASALLIGINI KECHISHINI O'ZIGA XOSLIGI

*Yuldashov J.A.*

*Urganch davlat tibbiyot instituti Oilaviy shifokor  
tayyorlash kafedrası PhD, dotsent*

*Matrasulova D.M.*

*Urganch davlat tibbiyot instituti Oilaviy shifokor  
tayyorlash kafedrası assistenti*

*Jumaniyazov A.A.*

*Urganch davlat tibbiyot instituti magistr*

*Quramboev B.Sh.*

*Urganch davlat tibbiyot instituti magistr*

**Mavzuning dolbzarbligi:** Surunkali pankreatit nazariy va amaliy tibbiyotning eng murakkab kasalliklaridan biri hisoblanadi. Dunyoning turli mamlakatlarida pankreatit bilan kasallanish 100000 aholiga 5-7 ta yangi holatni tashkil qiladi, ovqat-hazm qilish tizimi kasalliklari bilan kasallangan bemorlarning 5,1-9%ga surunkali pankreatit tashxisi qo'yiladi.

**Tadqiqot maqsadi:** Ortiqcha tana vazniga ega bemorlarda surunkali pankreatit kasalligini kechishini o'ziga xosligini o'rganish.


**Materiallar va usullar:** Bemorlarni tashxislash va kasallikga olib keluvchi sabablarni aniqlash uchun quyidagi klinik usullardan foydalainildi: shikoyatlarni yig'ish, kasallik tarixi, hayot anamnezi, premorbid fonda baholash, a'zolar faoliyatini ob'ektiv tekshiruvdan o'tkazish. Asosiy 1-guruhni 25 nafar surunkali pankreatit va ortiqcha vaznga ega bemorlar, 2-guruhni 25 nafar surunkali pankreatit va optimal tana vazniga ega bemorlardan iborat. Taqqoslama 3-guruhda 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan ( o'rtacha yoshi  $30,2 \pm 2,8$  yosh) 20 nafar sog'lom shaxslar jalb qilingan.

**Natijalar:** Ortiqcha tana vazniga ega bemorlarda surunkali pankreatitning klinik kechishi normal tana vazniga ega bemorlarda taqqoslama o'rganildi. Surunkali pankreatit bilan kasallangan bemorlarda ortiqcha vaznni dorilar va dorilarsiz usullar bilan korreksiya qilish samaradorligi baholandi. Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, ushbu patologiya asosan mehnatga layoqatli va yetuk yoshdagi shaxslarda ko'proq uchraydi: 40-50 yoshda 30% bemorlar, 50-60 yoshda 20% bemorlarda, 29-39 yoshda 42,5% bemorlarda, 18-28 yoshda 7,5 % bemoralarda. 1-guruhda 77,5% da surunkali pankreatit biliar etiologiyali, 16% da surunkali pankreatitning alkogol etiologiyali, 6,5% bemorda esa idiopatik pankreatit kuzatilgan. 2-guruhda esa asosan surunkali pankreatit kasalligida biliar etiologiya ustunlik qilgan 72%, alkogol etiologiyali 22%, idiopatik pankreatit 6%da kuzatildi. Kasallikning zo'rayish davrida, ya'ni bemorlar klinikaga

(13th international scientific and practical conference)

qabul qilinganda, barcha 50 nafar bemor (100%) ko'ngil aynishi shikoyatini bildirgan. Qusish holati 1-guruhida 11 nafar bemorda (12,5%), 2-guruhda esa 2 nafar bemorda (4,76%) kuzatilgan. Jig'ildon qaynashi 1-guruhidagi 39 nafar bemorda (88,6%), va 2-guruhdagi 19 nafar bemorda (45,2%) aniqlangan. Kekirish 1A guruhida 38 nafar bemorda (86,4%), 2-guruhda esa 10 nafar bemorda (23,8%) kuzatildi.

**Xulosa:** Kasallik asosan mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslarda ko'proq uchraydi. Etiologik jihatdan biliar shakl ustunlik qilsada, alkogol etiologiyasi ham muhim o'rin tutadi. Zo'rayish davrida bemorlarning aksariyatida dispeptik shikoyatlar ko'ngil aynishi, jig'ildon qaynashi, kekirish va meteorizm kuzatildi. Ortiqcha vaznga ega bemorlarda bu belgilar normal tana vazniga ega bemorlarga nisbatan ko'proq uchraydi va kasallikning klinik kechishini og'irlashtiradi. Shuningdek, ortiqcha vazni dorilar va dorilarsiz usullar bilan korreksiya qilish surunkali pankreatitning kechishini yengillashtirishda muhim ahamiyatga ega, umuman olganda, tadqiqot natijalari ortiqcha tana vazni surunkali pankreatitning klinik kechishini sezilarli darajada og'irlashtirishi va kasallikning simptomlarini kuchaytirishini tasdiqlaydi.



(13th international scientific and practical conference)